

**URMA SOZLARNING ZAMONAVIY CHOLG'U IJROCHILIGIDAGI O'RNI****Ashurova Shaxnoza Axmedovna****Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom  
san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab internati  
I-toifali o'qituvchisi****Sharipov Shaxzod Shavkatovich****Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom  
san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab internati o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10803264>**

**Annotatsiya.** Cholg'u ijrochiligimizda urma sozlarning o'tmishda ham beqiyosligini biz amaliyotda ko'rib xulosa qildik. Keyingi maqolalarimizda ushbu sozning ayrim mohir ijrochilari faoliyati ustida to'xtalib o'tmoqchimiz.

**Kalit so'zlar:** Doira, zarb, Qoshiq, qayroq, likop, lagan, patnis, zang, suyakchan, temirchang.

Musiqashunoslikda zarbli cholg'ularning turi juda rang-barangligi asoslab berilgan. Ularning ovoz va ijro xususiyatiga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Qoshiq, qayroq, likop, lagan, patnis, zang, suyakchan, temirchang va hokazo.
2. Nog'ora, ko'shnog'ora, ko's nog'ora, tablak (tavalak), shaqildoq, duxul (doul) va boshqalar. Bundan tashqari qadimda Buxoroda, Ohangrabo, Javs, CHindaul, ijratangez singari urma va tirkab chalinadigan sozlar ham mavjud bo'lganki, urma va tirkab chalinadigan sozlar ham mavjud bo'lganki, bugungi kunda ushbu yaolg'ular unitilib, cholg'u ijrochiligida ishlatilmay qoldi. YUqorida nomlari keltirilgan urma cholg'ulardan xar birining musiqa ijrochiligida o'z o'rni va mavqei bor. Lekin ayni paytda cholg'uchilik amaliyotida doira sozining mavqei balanddir. Doira haqida gapirganda, uning temb-akustik jihatlari borasida alohida ta'kidlamoqchimiz. Zarbli cholg'ular orasida doira eng yumshoq davomli va kuychan tovush sadolariga egadir. Shu nuqtai nazardan, doira hatto tanbur-dutordan singari maxsus sozlanadi ham. Maqom va unga o'xo'ash kuy va ashulalar ijrosida odatdakatta hajmdagi yumshoq tovushli doiradan foydalaniladi. Qizdirilganda bu asbob xumorli, cho'ziq tovush chiqaradi. Ana shunday mayin va sexrli ovoz chiqarish uchun doira chalayotgan sozanda oldiga tovush qaytargich (rezonator) vazifasini bajaruvchi suv to'ldirilgan tog'ora qo'yilgan. SHo'x ufor, shakldagi raqsbob musiqalarni chalish uchun esa nisbatan kichik o'lchamli jarangdor (ko'p qizdirilgan) doiralardan foydalanilgan. Ma'lumki, tovush tebranishidan hosil bo'ladigan fizik xodisa bo'lib, uni zarblash (chertish, urish) vositasida paydo qilish mumkin. Tovush chiqariladigan ashyoning qattiq yoki yumshoqligi va qattiqligiga qarab uning sadosining go'zallanuvchanligi, so'nngi davomiyligi belgilanadi. Qayroq, zang va safoilning asosiy manbai temirdir. Bunda ovoz uzoq yumuq chiqib tez so'nadi. Doira terisi nog'ora terisidan yumshoq bo'lib bo'sh tortiladi, va barmoqlarning uchi bilan (yumshoq joyi) chalingani sababli tovush sadosi mayin chiqadi. SHu sababli ularning davomiyligi, cho'zinchoq va o'zaro ulanib, qo'shilib ketgandek bo'ladi. Bunday tovushlarning eshitilib, bir-biriga singishi esa kuychanlikka olib keladi.

Doirada asosan usul ijro etilishi sababli u boshqa zarbli sozlardan funksional jixatdan farq qiladi va ashulachilikning xamda sozandachilikning asosiy cholg'ularidan biri sifatida e'tirof etiladi. Qayroq va zang esa birinchi navbatda raqs asbobi bo'lganligi tufayli usul cholg'ulari turiga bevosita mansubdir. Quyida doyra tarixi va uning cholg'u ijrochiligi, ustida to'xtalamiz. Qomusiy bilimlar sohibi Abdurauf Fitrat doyra soziga shunday ta'rif beradi: "Bir yuzi kiyik yoki echki terii

bilan qoplangan yog'och chambardan iboratdir. Usul saqlaganda barmoq bilan chertiladi. Bir chetiga chertganda "bak" tovushini. O'rta tomoniga chertganda "bum" tovushini beradir". (Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasi 34 bet. T. Fan nashriyoti 1993 yil ).

A. Fitrat yuqoridagi risolada musiqqa, xususan SHashmaqom musiqasini ijro etishda, sho"balar usulini qat'iy maromda saqlab qolishda doyra sozining roli beqiyosligi ta'kidlaydi va unda milliy musiqani chalganda "bum-bak", (Xorazmda esa, "gub-taq") kabi so'z bo'linmalaridan foydalanishni yozib qoldiradi. U xususan shashmaqomning mushkilot va nasr qismi barcha sho"balari usullarini qayd etadi. Va bu usllarni ijro etishda doyra sozining tutgan o'rnini asoslab beradi.

Milliy cholg'ular qatoridan joy olgan doyra yakkanavozlikda, ansambl, orkestrlarda muhim rol tutadi. U ayniqsa yakkaxon xonanda – sozandalarga ham jo'rnnavozlik qiladi. Doyra o'zining usullari bilan ijroni boshqarib boradi. Darqaqiqat, ustoz Abdurauf Fitrat aytganidek doyrada ikki xil tovush bor. Pastki tovush "bum", yuqori tovush "bak" deb yuritalid. Usta doyrachilar deyarli hamma barmoqlarni ishga soladilar va rang-barang tovush hosil qilishga erishadilar. Bu cholg'u sozi Markaziy Osiyo xalqlari orasida juda keng tarqalgan bo'lib, uni katta – kichik , erkagu-ayollar birday sevib, bayramlarda va boshqa turli marosimlarda zavq bilan chaladilar.

Usta doyrachilarga kelsak, ular sehrli barmoqlari orqali turli-tuman tovushlar hosil qilib, o'rmondagi qushlar sayrog'i yoki paravozning asta-sekin joyidan siljib tezlashib borishini mo"jizakorlik bilan chaladilar.

Agar doyraning bugun musiqiy hayotda tutgan o'rni haqida fikr yuritadigan bo'lsak, musiqaning biron-bir sohasi yo'qki, (ijrochilik bilan bog'liq bo'lgan tomoni) doyra ishtirok etmasa. Bolalar bog'chasida o'tkaziladigan mashg'ulotlardan an'anaviy yoki akademik ijro darajasidagi professoinal jamoalar xonanda-sozandaning yakka ijrochiligi, xalq cholg'u asboblari ansambllari, orkestrlari yoki estrda yo'llaridagi ijrolarda ham doyra etakchi rol o'ynaydi. Keyingi yillarda sof doyra yoki barcha urma zarbli cholg'ulardan iborat bo'lgan ansambllar ham tashkil etilayapti. Bunga Dilmurod Islomov, Abbas Qosimovlar rahbarligidagi urma sozlar ansambli misol bo'la oladi. "Abbos" guruhining dovrug'i bugungi kunda ancha mashhur bo'lib qoldi. Ushbu jamoa o'zining mazmunli dastari va ansambli tarkibidagi urma cholg'ularning rang-barangligi, ovozlar tembrining kuchlliligi bilan eshituvchida katta tassurot qoldiradi. "Abbos" guruhi nafaqat respublikamizda o'tkaziladigan turli marosim va tadbirlarda, balki chet elda Amerika, Italiya, Fransiya singari davlatlarda o'tkazilgan xalqaro musiqqa ko'rik – tanlovlari hamda gastrol safarlarida bo'lib, o'z shinavandalari doirasnii yanada kengaytirishga muvaffaq bo'lmoqda.

Oxirgi yillarda doyra sozi bo'yicha professional ijrochilani tayyorlash borasida katta ishlar amala oshirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonning barcha musiqqa o'quv muassasalarida bolalar musiqqa maktabi, san'at kollejaridan boshlab, O'zbekiston davlat konservatoriyasigacha doyra sozi bo'yicha maxsus mutaxassislik sinflari ochilgan. Bunda katta malaka va tajribaga ega bo'lgan murabbiylar yosh mutaxassislarga saboq bermoqdalar. YAna shuni ta'kidlamoqchimizki, o'quv qo'llanmalari, darslik va va dasturlar yaratish borasida ham ancha ishlar qilindi va qilinmoqda. YAshin Haqqulov, Odil Kamolxo'jaev, Ashot Petrosyans, Anvar Leviev va boshqalar tomonidan yaratilgan "Doyra darsligi" to'plamlari fikrimiz dalilidir.

Xullas doyra sozining bundan keyingi istiqboli yorqindir. Uning milliy istiqboli yorqindir. Uning milliy musiqamizda tutgan o'rni yanana baland bo'lishiga oshonchimiz komildir.

Cholg'u ijrochiligimizda urma sozlarning o'tmishda ham beqiyosligini biz amaliyotda ko'rib xulosa qildik. Keyingi maqolalarimizda ushbu sozning ayrim mohir ijrochilari faoliyati ustida to'xtalib o'tmoqchimiz.

**References:**

1. Yarashev J. Artistic and Aesthetic Features of " Buchor" Tune //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – С. 118-122.
2. Yarashev J. T. " BUKHORCHA" AND" MAVRIGI" SONG CLASSES–AS A NATIONAL AND NOETIC SPIRITUAL VALUES OF THE UZBEK NATION //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2013. – №. 39. – С. 114-117.
3. Ярашев Ж. Т. SONGS OF COMPOSITE CYCLES OF" BUHORCHA" AND" MAVRICHl" AS MUSICAL VALUES FOR UZBEK PEOPLE //Актуальные проблемы современной науки. – 2012. – №. 2. – С. 93-95.
4. Ярашев Ж. Т. Музыкальная терапия //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 641-647.
5. Ярашев Ж. Т. Нравственное и эстетическое воспитание учащихся в сотрудничестве с семьей и школой //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 42-44.
6. Ярашев Ж. Художественно-эстетические особенности мелодии «Бухорча» //Восточноевропейский научный журнал. – С. 118-122.
7. Uzakova M. et al. Pedagogical Views of Modern Enlighteners on Art and Music //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 56-60.
8. Tourayevich Y. J., Uktamovna M. D. METHODS OF DEVELOPING STUDENT VOCAL DYNAMIC SENSE IN MUSIC CULTURE CLASSES //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
9. Turaevich Y. J., Botirovna K. M. Creativity in the development of music and pedagogical activity in higher education //Thematics Journal of Arts and Culture. – 2022. – Т. 6. – №. 1.
10. Yarashev D. T., Akhrorov K. K. IN THE GROWTH OF MUSICAL ABILITIES OF STUDENTS IMPORTANCE OF USING THE ACT //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 792-796.
11. Kambarova M.B “O’quvchiarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari”. Scientific journal Scholar volume2, Issue 3. ISSN 2181-4147 VOLUME2, ISSUE 3 JANUAR 2024. 36-37-38-39-40 betlar